



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUUI USTIDAN NAZORAT
QILISH INSPEKSIYASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I**

2026-yil 26-yanvar

2-B-son

**“O‘zagroinspeksiya” markaziy apparati tuzilmasi va shtat birliklarini
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son va 2025-yil 30-oktabrdagi PF-201-sonli Farmonlari va 2025-yil 29-dekabrda PQ-394-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zagroinspeksiya” to‘g‘risidagi nizomning 17-bandi “g” va “j” kichik bandiga asosan,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasida Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish maqsadida, “O‘zagroinspeksiya”ning “Axborot tahlil, ijro intizomi va ma‘muriy amaliyot” boshqarmasi “Strategik rejalashtirish, axborot tahlil, ijro intizomi va ma‘muriy amaliyot” boshqarmasi etib o‘zgartirilsin.

“O‘zagroinspeksiya” markaziy apparati **tuzilmasi va shtat birliklari 1-va 2-ilovalarga muvofiq** tasdiqlansin.

2. Moliya-iqtisod va xo‘jalik bo‘limi (A.G‘afforov) **bir hafta muddatda** mazkur buyruq talablaridan kelib chiqib, shtatlar jadvalini qayta ishlab chiqsin va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlasin:

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrda PQ-394-sonli qarori talablarida belgilangan strategik rejalashtirish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma rahbari tashkilot rahbarining maslahatchisi maqomiga ega bo‘lishi hamda mehnatga haq to‘lash va tibbiy xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra rahbar o‘rinbosariga tenglashtirilishi inobatga olinsin.

3. Axborot tahlil, ijro intizomi va ma‘muriy amaliyot boshqarmasi (Pirnazarov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (O‘tbosarov) bilan birgalikda:

bir hafta muddatda boshqarma nomlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini ta‘minlasin.

4. Axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchi - matbuot kotibi (S.Ismailova) “O‘zagroinspeksiya” markaziy apparati tuzilmasi va shtat birliklariga asosan Inspeksiyaning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalaridagi ma‘lumotlarni yangilasin.

5. Inspeksiyaning 2026-yil 15-yanvardagi **1-B-son buyrug‘ining 3-4-ilovalari** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshliq
Toshkent sh.



A.Vaxabov